



Tashkent State University of Economics

JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN
2181-1016



O'ZBEKISTONDA SOLIQDAN QOCHISH MUAMMOLARI: TENDENSIYALAR, SHAKLLAR VA YECHIMLAR

Oymatova Gulinur Mirjamolovna

Guliston Davlat Universiteti tayanch doktoranti

E-mail: 1989gulinur1989@gmail.com

ORCID 0009-0005-9631-143X

TAX EVASION ISSUES IN UZBEKISTAN: TRENDS, FORMS AND SOLUTIONS

Oymatova Gulinur Mirjamolovna

PhD Student, Gulistan State University

Email: 1989gulinur1989@gmail.com

ORCID 0009-0005-9631-143X

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda soliqdan qochish tendensiyalari va ularning asosiy shakllari tahlil qilindi. Soliqdan qochish holatlarining yillar kesimidagi dinamikasi o'rganilib, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qo'llanilayotgan daromadlarni yashirish usullari hamda mazkur holatlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy va institutsional omillar tadqiq etildi. Tadqiqot natijalari asosida soliqdan qochish holatlarini kamaytirish, soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish va soliq intizomini mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: soliqdan qochish, yashirin iqtisodiyot, soliq intizomi, daromadlarni yashirish, soliq ma'murchiligi, soliq nazorati.

Abstract: This article analyzes tax evasion trends and their main forms in Uzbekistan. The dynamics of tax evasion over the years are examined, and a comparative analysis is conducted using the experience of selected foreign countries. The study also investigates the methods of income concealment employed by business entities, as well as the economic and institutional factors influencing such

practices. Based on the research findings, practical recommendations are developed to reduce tax evasion, improve the effectiveness of tax administration, and strengthen tax compliance.

Keywords: tax evasion, shadow economy, tax compliance, income concealment, tax administration, tax control.

Kirish. Soliqlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra davlat budjetini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish hamda davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va xavfsizlik tizimini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Biroq ayrim hollarda fuqarolar soliqlarni jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida emas, balki shaxsiy daromad va boylikni kamaytiruvchi majburiy to'lov sifatida qabul qiladilar. Natijada davlatning fiskal maqsadlari va ayrim soliq to'lovchilarning individual iqtisodiy manfaatlari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Davlat soliqlar orqali ijtimoiy himoya, infratuzilma va iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirishni maqsad qilgan bo'lsa, ayrim shaxslar qisqa muddatli iqtisodiy manfaatlarini ustuvor qo'yib, soliq majburiyatlarini to'liq bajarmaslikka yoki ulardan qochishga intilishlari mumkin. Shu sababli soliq intizomi va soliqqa bo'lgan

munosabatni tahlil qilishda aholining farovonlik darajasi, iqtisodiy sharoiti hamda soliq tizimiga bo'lgan ishonchini aks ettiruvchi omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida soliqdan qochish nafaqat davlat budjeti daromadlarining kamayishiga, balki iqtisodiy raqobat muhitining buzilishiga, yashirin iqtisodiyot ulushining ortishiga va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga ham olib keladi. Soliq majburiyatlarini bajarmayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar qonuniy faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilarga nisbatan asossiz ustunlikka ega bo'lib, bu esa bozor mexanizmlarining samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli soliqdan qochish holatlarining sabablari va unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan o'rganish, mazkur hodisani kamaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metod. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqdan qochish holatlarining yuzaga kelishiga iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillarning kompleks ta'siri mavjud. Xususan, soliq yukining yuqori darajasi va soliq tizimining murakkabligi soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarishga bo'lgan rag'batini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, soliq ma'murchiligining yetarli darajada samarali emasligi, nazorat mexanizmlarining zaifligi, korrupsiya holatlarining mavjudligi hamda soliq organlariga bo'lgan ishonchning pastligi soliqdan qochish xavfini oshiruvchi muhim institutsional omillar sifatida e'tirof etiladi. Bundan tashqari, yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi va soliq madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi ham mazkur hodisaning keng tarqalishiga xizmat qiluvchi omillar qatoriga kiradi.

Allingham va Sandmo tomonidan ishlab chiqilgan nazariy modelga ko'ra, soliqdan

qochish qarori asosan soliq stavkasi, soliq tekshiruvchi ehtimoli, jarima miqdori, soliq to'lovchining daromad darajasi hamda uning tavakkalchilikka bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, tekshiruv ehtimoli va jarimalarning oshishi soliq intizomini kuchaytirsa, yuqori soliq yuki ayrim hollarda soliqdan qochish rag'batini kuchaytirishi mumkin [9].

James Alm va hammualliflari soliq intizomini faqat iqtisodiy rag'batlar bilan izohlash yetarli emasligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, soliq to'lovchilarning qarorlariga davlat institutlariga bo'lgan ishonch, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy me'yorlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois soliqdan qochish hodisasini tahlil qilishda iqtisodiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy va psixologik omillarni ham hisobga olish zarur [11].

Ushbu nazariy qarashlar O'zbekistonda ham dolzarb bo'lib, soliq organlariga bo'lgan ishonch darajasi, soliq ma'murchiligi sifati va soliq madaniyati soliq intizomiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy qarashlarida ham soliqlarning haddan tashqari oshirilishi iqtisodiy faollikning pasayishiga va davlat daromadlarining qisqarishiga olib kelishi mumkinligi ta'kidlangan. Xususan, Ibn Xaldun davlat daromadlarini oshirishda soliqlarning mo'tadil darajada belgilanishi muhimligini qayd etib, soliq yukining ortishi ishlab chiqarish va tadbirkorlik faolligini pasaytirishini ta'kidlagan [10].

Zamonaviy mahalliy ilmiy adabiyotlarda ushbu muammoni atroflicha tadqiq qilgan iqtisodchi olimlardan biri M. Qosimov o'zining ishida yashirin iqtisodiyotning shakllanish sabablari sifatida yuqori soliq yuklamasi va soliq ma'murchiligidagi kamchiliklarni ko'rsatadi va ularning

soliqdan qochish holatlarining ko'payishiga olib keladigan asosiy omil deb ta'kidlaydi [12].

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar soliqdan qochish hodisasining iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyati soliqdan qochishning umumiy nazariy jihatlari va unga ta'sir etuvchi omillarni yoritishga qaratilgan bo'lib, O'zbekistonda ushbu hodisaning zamonaviy tendensiyalari va amaliy ko'rinishlarini kompleks tahlil qilish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, iqtisodiyotni raqamlashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida soliqdan qochishning yangi shakllari hamda ularning iqtisodiy oqibatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda soliqdan qochishning asosiy tendensiyalari va shakllarini tahlil qilish, ularning yuzaga kelish omillarini aniqlash hamda soliq intizomini mustahkamlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi.

Jumladan, soliqdan qochishning nazariy asoslarini o'rganishda ilmiy abstraksiya va mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi. Mavjud statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, soliqdan qochish tendensiyalari va shakllarini baholashda induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Ilmiy adabiyotlarda soliq yukining yuqoriligi soliqdan qochish holatlarining asosiy sabablaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston sharoitida mazkur omilning qay darajada dolzarb ekanligini aniqlash maqsadida mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hamda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlarining YaIMdagi ulushi tahlil qilindi.

So'nggi besh yillik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda YaIM 734,6 trln so'mni, konsolidatsiyalashgan budjet daromadlarining YaIMdagi ulushi esa 26,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 1 849,7 trln so'm va 27,2 foizni tashkil etdi. Mazkur ma'lumotlar soliq yukining keskin ortmaganligini va nisbatan barqaror darajada saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2021-2025-yillardagi konsolidatsiyalashgan budget daromadlari va uning YaIMdagi ulushi dinamikasi [6-8]

Yillar kesimida	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.
YaIM, trln so'm (2018-21 yilgi ko'rsatkichlar eski ma'lumotlar bo'yicha berilgan)	734,6	1 041,9	1 261,8	1 535,4	1 849,7
Konsolidatsiyalashgan budget daromadlari, trln so'm	196,4	286,5	321,9	385,8	502,6
Davlat budjeti daromadlari, trln so'm	164,8	201,9	231,7	274,4	359,8
Konsolidatsiyalashgan budget daromadlarining YaIMdagi ulushi%	26,7	27,5	25,5	25,1	27,2

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, so'ngi yillarda O'zbekistonda YaIMga nisbatan soliq yuki 25-28% oralig'ida saqlangan.

OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda o'rtacha soliq yuki ko'rsatkichi ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlari orasida 34,1% ko'rsatkichini tashkil etdi [13]. Bunda eng yuqori ko'rsatkich Daniyada 45,2 foizni (ayrim manbalarda 45,6 foiz [14]) va eng quyi foiz Meksikada 18,3%ni tashkil etadi. Fransiya, Italiya, Avstriya va Belgiya kabi Yevropa davlatlarida ham yalpi ichki mahsulotda soliq yig'imlarining ulushi 42% dan yuqori [13]. Mazkur yuqori ko'rsatkichlar mamlakatlarda rivojlangan ijtimoiy ta'minot tizimi, sog'liqni saqlash xizmatlari va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkonini beradi. Buyuk Britaniya ham 36,9% bilan yuqori darajani saqlab turadi [15].

G20 mamlakatlari bo'yicha yuqori daromadli davlatlar, masalan, Kanada va Yaponiya, soliq tushumlari nisbati yuqori

bo'lishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, Rossiya va Turkiya kabi davlatlarda soliqlarning YaIM'dagi hissasi pastroq bo'lib, bu mamlakatlarning soliqqa yondashuvi va iqtisodiy boshqaruv usullaridagi farqni ko'rsatadi.

Jahon banki iqtisodiy o'sish va qashshoqlikni oldini olish uchun soliqlarning YaIM'dagi ulushi kamida 15% bo'lishi muhim deb hisoblaydi. Bunday iqtisodiy muammoni bartaraf etishga erishgan mamlakatlarda aholi boshiga to'g'ri keladigan YaIM bu ko'rsatkichdan o'rtacha 7-8% yuqori bo'ladi. Masalan, Xitoy 1994-yilgi soliq islohotlari orqali soliq tushumlarini oshirish orqali keyingi 10 yillikda keskin iqtisodiy rivojlanishga erishgan.

Biroq, neftga boy mamlakatlar, masalan Saudiya Arabistoni, soliqqa kam tayanadi, chunki hukumat xarajatlari asosan neft daromadlari orqali moliyalashtiriladi. Shu tarzda, soliqlarning YaIM'ga nisbati mamlakatlarning iqtisodiy siyosati, ijtimoiy

xizmatlarga yondashuvi va moliyaviy barqarorligini ko'rsatib beradi [16].


Shu bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqlarning YaIM'dagi ulushi 30-35% dan ortishi soliq to'lovchilarning soyaga o'tish tendensiyasining o'sishiga olib keladi [17]. Soyaga o'tish imkoniyatlarining mavjudligi soliq yukining qay darajada bo'lishidan qat'i nazar, ayrim soliq to'lovchilar uchun jozibador bo'lishi mumkin. Xo'jalik yurituvchi subyektlar odatda o'z iqtisodiy manfaatlarini maksimal darajada oshirishga intilar ekan, nazorat mexanizmlarining zaifligi yoki norasmiy faoliyat yuritish imkoniyatlarining mavjudligi ayrim subyektlarni soliq majburiyatlarini chetlab o'tishga undashi mumkin.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotning ulushi 2025-yilda 33-35%ni tashkil etdi. Strategik rivojlanish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida yashirin iqtisodiyotning ulushi 48 foizdan 62 foizgacha bo'lgan. 2023-yil oktabr oyida O'zliDep O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ulushi 40 foizni tashkil etishini ma'lum qildi. Bunda uy-joy va transport vositalarining ikkilamchi


bozori, norasmiy savdo, xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalar mamlakatda yashirin iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omillari bo'lib xizmat qildi [18].

2024-yil natijalariga ko'ra, "kuzatilmaydigan" iqtisodiyot hajmi rasman YaIMning 34,8 foizini (505 trillion so'mdan ortiqni, jumladan yashirin iqtisodiyot 122 trln so'mni (24,1%) va norasmiy iqtisodiyot 384 trln so'mni (75,9%)) tashkil etdi. Soya iqtisodiyotining ulushi 2017-yildagi 50 foizdan 2024-yilda 35 foizgacha kamaydi. Yaqin kelajakda kuzatilmagan iqtisodiyotning yana 79 trillion so'mini statistikaga kiritish va uning ulushini 29 foizgacha kamaytirish mumkin [4].

Sohalar bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot darajasi quyidagicha: qishloq xo'jaligi – 63%, qurilish – 41%, xizmat ko'rsatish – 40 %, ishlab chiqarish – 9 %. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy faoliyatning turli sohalardagi ochiqlik darajasini va norasmiy faoliyat ulushini aniq ko'rsatib beradi [5]. Bu ko'rsatkichlarning so'ngi yillardagi tendensiyasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining STATISTIKA integrallashgan axborot tizimi portali "siat.stat.uz" da kuzatib borish mumkin (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, 2021–2025 yy. (%) [5]



2-rasm. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, 2021–2025 yy. (%) [5]

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, mamlakatda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi so'nggi yillarda sezilarli darajada qisqargan bo'lsa-da, uning hajmi

hanuz yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Mazkur holat iqtisodiy faoliyatning muayyan qismi rasmiy statistika va soliq nazoratidan tashqarida amalga oshirilayotganligini

ko'rsatadi. Yashirin va norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni rasmiy sektorga jalb etish hamda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish davlat budjeti daromadlarini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, soliqlardan qochish holatlarini kamaytirish va iqtisodiy faoliyatning shaffoqligini ta'minlash mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Munozara. Bugungi kunda soliqdan qochishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bu biznesni qismlarga bo'lib, bu ko'pincha soliqlarni optimallashtirish bilan chalkashtiriladi. Soliqlardan bo'yin tovlash sxemalari — bu soliqlarni kamaytirish yoki yashirishning noqonuniy usullari hisoblanadi. Ularni qonuniy soliq optimizatsiyasi (ya'ni qonun ruxsat berilgan imtiyoz va chegirmalardan foydalanish) bilan adashtirmaslik kerak.

Ko'pincha soliqni optimallashtirish niqobi ostida soliqdan qochishga urinish holatlari kuzatiladi. Ba'zan tadbirkorlar (hatto buxgalterlar ham) hech kim sezmaydigan "puxta sxema" o'ylab topmoqchi bo'lishadi, masalan biznesni uchta alohida yuridik shaxsga bo'lib, bitta direktor bilan ishlaydigan kompaniyaga aylantirishadi.

Soliq organlarida sohalar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarga kirish imkoni, avtomatlashtirilgan algoritmlar va minglab tekshiruvlar tajribasi mavjud. Nimaiki "dohiyona g'oya"dek tuyulmasin, amalda bu soliqlardan bo'yin tovlash sxemasi sifatida oson aniqlanadi.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan soliqdan qochish sxemalarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Daromadlarni yashirish usuliga ko'ra: tushumning bir qismini hisobda

ko'rsatmaslik, rasmiylashtirmasdan ishlash, naqd pulda savdo qilish va uni hisobga kiritmaslik;

2. Soxta xarajatlar orqali: xarajatlar bo'yicha qalbaki hujjatlar tuzish, "bir kunlik" firmalar bilan ishlash, tovar yoki xizmat narxini sun'iy ravishda oshirish;

3. Offshorlar orqali operatsiyalar shaklida: foydani past solikli hududlarga o'tkazish, haqiqiy egalarni yashirish, transfer narxlar bilan manipulyatsiya qilish;

4. Biznesni bo'lish (fragmentatsiya) shaklida: bitta yirik kompaniyani bir nechta kichik subyektlarga ajratish, amalda yagona boshqaruv bo'lsa ham, turli yuridik shaxslar sifatida rasmiylashtirish;

5. "Konvertidagi" ish haqi usulida: rasmiy hujjatda past maosh ko'rsatib, naqd shaklda berish, xodimni rasmiy ro'yxatga olmasdan norasmiy maosh to'lash;

6. Soxta shaxslar orqali biznesni yuritish shaklida: biznesni hujjatda direktorlar nomiga rasmiylashtirish, boshqa shaxslar nomidagi kompaniya yoki YaTTdan foydalanish va h.k.

Yuqorida keltirilgan bu sxemalardan ayrim bizneslar faol foydalanadilar va xususiy sektorda ko'plab korxonalar ikki xil buxgalteriya hisobi yuritadilar: soliq organlari uchun alohida, boshqaruv uchun alohida. Bu holatni hisoblangan ish haqi ma'lumotlariga qarab ham ko'rish mumkin. Hujjatda kamaytirib ko'rsatilgan va amalda yuqori bo'lgan va "konvertida" beriladigan ish haqi daromadlari yuridik shaxsning soliq hisobotlarida aks etmagan naqd pul shaklidagi daromadlarining borligidan dalolat beradi.

Daromadlarni yashirish, norasmiy hisob-kitoblarni amalga oshirish va soliqqa tortish bazasini sun'iy ravishda kamaytirishga qaratilgan amaliyotlarning saqlanib qolishi yashirin iqtisodiyotning qisqarish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur holatlar

davlat budjeti daromadlarining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilishi bilan birga, soliq tizimining adolatliliigi va iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi sog'lom raqobat muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli soliqdan qochishning mavjud shakllarini aniqlash, ularning yuzaga kelish omillarini tahlil qilish hamda ularga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqdan qochish holatlari iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillarning kompleks ta'siri ostida shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda soliq yuki soliqdan qochishga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida qayd etilgan bo'lsa-da, O'zbekiston bo'yicha tahlil qilingan ma'lumotlar ushbu hodisani faqat soliq yukining yuqoriligi bilan izohlash yetarli emasligini ko'rsatadi. Soliq ma'murchiligi sifati, nazorat mexanizmlarining samaradorligi, soliq madaniyati darajasi va yashirin iqtisodiyotning mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda soliqdan qochishning asosiy shakllari sifatida daromadlarni yashirish, soxta xarajatlarni shakllantirish, biznesni sun'iy ravishda fragmentatsiya qilish, "konvertdagi" ish haqi to'lash, offshor sxemalardan foydalanish hamda soxta shaxslar orqali tadbirkorlik faoliyatini yuritish holatlari amaliyotda uchraydigan asosiy shakllar hisoblanadi. Mazkur sxemalar davlat budjeti daromadlarining kamayishiga, sog'lom raqobat muhitining buzilishiga hamda iqtisodiy resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Bu muammoni qisman bo'lsa-da bartaraf etishda quyidagi tavsiyalarni inobatga olib, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

❖ Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish va

risklarni avtomatik tahlil qilish tizimlarini kengaytirish;

❖ Biznesni sun'iy ravishda fragmentatsiya qilish va daromadlarni yashirish holatlarini aniqlash bo'yicha nazorat mexanizmlarini takomillashtirish;

❖ Norasmiy bandlik va "konvertdagi" ish haqi amaliyotlarini qisqartirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish;

❖ Soliq to'lovchilarning huquqiy savodxonligi va soliq madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

❖ Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida ochiqlik hamda o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kengaytirish.

Mazkur tavsiyalarning amalga oshirilishi soliq intizomini mustahkamlash, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va davlat budjeti daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Toshkent, 2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son (<https://lex.uz/docs/4415356>)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son farmoni (<https://lex.uz/docs/5073459>)
4. O'zbekiston Respublikasi hukumat portali <https://gov.uz/oz/news/view/106050> (Murojaat etilgan sana: 27.05.2026)
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining STATISTIKA integrallashgan axborot tizimi portali <https://siat.stat.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy sahifasi <https://www.imv.uz/oz/static/konsolidatsiyalashgan-budjet-balansi-2024>
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi BUDJETNOMA 2025-2027
8. Бюджет для граждан https://api.mf.uz/media/document_files/%D0%98%D0-%91_2022_ru_re-com_VcFtDNY.pdf
9. Allingham, M.G., & Sandmo, A. (1972). Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis. *Journal of Public Economics*, 1(3–4), 323–338.
10. Ibn Xaldun. Muqaddima – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 800 b.
11. James Alm, McClelland, Schulze (1992), *Why Do People Pay Taxes?*
12. Qosimov M. (2019). Yashirin iqtisodiyot va uni kamaytirish yo'llari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti
13. Revenue Statistics 2025 https://www.oecd.org/en/publications/revenue-statistics-2025_3a264267-en.html (Murojaat etilgan sana: 27.05.2026)
14. Taxes and duties <https://www.dst.dk/en/Statistik/emner/oekonomi/offentlig-oekonomi/skatter-og-afgifter> (Murojaat etilgan sana: 28.05.2026)
15. Institute for Fiscal Studies: How have government revenues changed over time? <https://ifs.org.uk/taxlab/taxlab-key-questions/how-have-government-revenues-changed-over-time> (Murojaat etilgan sana: 28.05.2026)
16. Exploring Global Tax-to-GDP Ratios: What the Numbers Reveal <https://www.dawgen.global/exploring-global-tax-to-gdp-ratios-what-the-numbers-reveal/> (Murojaat etilgan sana: 28.05.2026)
17. Lucas Menescal, José Alves. Optimal threshold taxation: An empirical investigation for developing economies https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1703494923000555?utm_source (Murojaat etilgan sana: 27.05.2026)
18. В Узбекистане доля теневой экономики составляет 40% или порядка \$32 млрд <https://uznews.uz/posts/68363> (Murojaat etilgan sana: 28.05.2026)
19. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-norasmiy-iqtisodiyotni-qisqartirish-va-naqdsiz-tolovlarni-kengaytirishga-qaratilgan-yangi-chora-tadbirlar-belgilandi=chatgpt.com> (Murojaat etilgan sana: 28.05.2026)